

## LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARINING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI, ULARNI MUHOFAZA QILISH

**Sayramov Fayzullo Baratjon o'g'li**  
*FarDU, Agrar qo'shma fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ma'lumki, Qizil kitobning 1-nashri 1984-yilda nashr kilingan edi. Qizil kitobning birinchi nashrida fakatgina 163 tur kiritilgan bo'lsa, ikkinchi nashrida 301 tur, turlarning soni qariyb ikki martaga ortgan. O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ining 2-nashri 1998-yilda chop etildi. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi" ning 2006 yilgi nashrida o'simliklarning 305 ta turi keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *havorang marmarak, komarov bo'zboshi, tyanshan marmaragi, sarxush bozulbang, bo'g'iz tukli eremostaxis.*

Undan ma'lum bo'lishicha eng katta oilalar quyidagilar: 1. Fabaceae-60, Asteraceae-50, Liliaceae-25, Lamiaceae-23, Apiaceae-18 va boshqalar. Jadvalda keltirilgan 10 ta oila 229 turdan iborat bo'lib, bu umumiy turlarning 76,3% ini tashkil qiladi. Qolgan 40 ta oilalar tarkibida 6 tadan 1 tagacha turlar mavjud. 28 ta oila faqat bittadan turkum va turlardan iborat.

Yalpizdoshlar oilasining 23 ta turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" ning 2006 yilgi 3-nashriga kiritilgan.

Bu oilaning marmarak (*Salvia L.*) turkumining 7 ta turi ushbu nashrga kiritilgan. Qolgan turkumlarda bir nechtdan turlar bor.

Korolkov marmaragi (*Salvia korolkowii Regel et Schmalh.*)

Kamyoblik darajasi 2. G'arbiy Tyanshandagi kamyob, endem o'simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo'yi 50 sm ga yetadigan, tik o'suvchi, oq momiq tukli yarim buta. Barglari asosan yepirma barglardan iborat, keng-nashtarsimon poyadagilari 2-3 juft, ustki tomoni siyrak, ostki tomoni esa oq momiq tukli. Gullari 2-10 tadan murakkab soxta xalqa hosil qilib o'rnashgan. Kosachasi keng-qo'ng'iroqsimon, ikki labli, pardasimon, yo'g'on tomirli. Toj barglari sariq, uzunligi 25-33 mm. Mevasi 4 ta yong'oqchaga ajraladi. Iyunda gullab, iyul oyida mevasi yetiladi.

Tarqalishi. Toshkent viloyati: Qorjontog', Ugom va Ko'ksuv tizmalarida hamda Chotqol tizmasining shimoli-g'arbida tarqalgan.

O'sish sharoiti. Dengiz satxidan 1200-1500 m balandlikda soz tuproqli nuragan yonbag'irlarda, tik qizil sozlarda o'sadi.

Soni. Tarqalish maydonlarining chegaralanganligi sababli tabiiy zaxiralarim kam. Umumiy soni 20000 tupdan iborat. 200 ga yaqin to'pi mavjudligi aniqlangan.

Ko'payishi. Urug'idan ko'payadi.

O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Chorva mollarini boqilishi va yangi yerlarni o'zlashtirilishi.

Madaniylashtirilishi. O`zbekiston Respublikasi F.A Botanika bog`ida ekilgan.

Muhofaza choralari. Maxsus muxofaza choralari ishlab chiqilmagan.

To`mtiq marmarak (*Salvia submutica* Botsch. et Vved.)

Kamyoblik darajasi 2. Nurota tizmasidagi kamyob, relik, endem o`simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo`yi 15-40 sm ga yetadigan ko`p yillik o`t. Poyasi bitta, tik, qalin bezchasimon tukli. Yopirma barglari ko`p, bandli, cho`ziq, nashtarsimon, patsimon bo`lingan, bo`laklari o`z navbatida chuqur-parsimon qismlarga ajralgan. Poyasining pastki qismidagi bir juft barg qisqa bandli, chetlarining uchi o`tkir bo`laklarga ajralgan, poyaning o`rta va yuqori qismidagilari esa bandsiz, butun va maydaroq. Gullari uzun (10-12 mm), gul bandda 4 tadan xalqa hosil qiladi. Kosachasi keng-qo`ng`iroqsimon, biroz shishgan, uzunligi 22-23 mm, deyarli ikki labli, kosachabarglari to`mtiq. Toji sarg`ish. Iyulda gullab, iyul-avgust oylarida mevasi yetiladi.

Tarqalishi. Jizzax viloyati: Nurota tizmasida tarqalgan.

O`sinh sharoiti. Tog`larning o`rta qismidagi surilma va granit toshli yonbag`irlarda o`sadi.

Soni. Tabiatda yakka-yakka holda tarqalgan. Ko`proq Qo`ytosh tog`ida va Uxumsoy daryosi voxasida o`sadi.

Ko`payishi. Urug`idan ko`payadi.

O`simlik soni va arealining o`zgarish sabablari. Chorva mollarining ko`plab boqilishi turning kamayib ketishiga sabab bo`lmoqda.

Madaniylashtirilishi. O`zbekiston Respublikasi FA Botanika bog`ida o`stirilmog`da.

Muhofaza choralari. Bu tur o`sadigan yerlarning bir qismi Nurota qo`riqxonasida muxofaza qilinadi.

Havorang marmarak (*Salvia lilacinocaerulea* Nevski)

Kamyoblik darajasi 2. Janubiy Pomir-Oloydagi kamyob, endem o`simlik.

Qisqacha tavsifi. Poyasi 1-3 ta, tik, bezchali tuklar bilan qoplangan, balandligi 30-60 sm. Barglari lirasimon – patsimon qirqilgan, ikkala tomoni oqish tukli. Gullari 1-2 tadan 1 sm uzunlikdagi gulbandlarda guloldi bargchalarning qo`ltig`ida o`rnashgan. Kosachasi keng qo`ng`iroqsimon, qabariqli, uzunligi 15-20 mm, tuklari bezchali. Gultoji och-pushti rang, 35-45 mm uzunlikdagi qoramtir qaytaqili. Yong`oqchasi yassi-ellipssimon, uzunligi 5 mm.

Tarqalishi. Ko`xitang tizmasida, Susiztog` va Boysuntog`da tarqalgan (Surhondaryo viloyati).

O`sinh sharoiti. Tog`larning o`rta qismidagi qoyalarning soyalarida o`sadi.

Soni. 3000 tupi borligi aniqlangan.

Ko`payishi. Urug`idan ko`payadi.

O`simlik soni va arealining o`zgarish sabablari. Mollarning boqilishi va pichan o`rilishi tufayli kamayib ketgan.

Muhofaza choralari. Surxon qo`riqxonasida muhofaza qilinadi.

Komarov bo`zboshi (*Dracocephalum komarovii* Lipsky)

Kamyoblik darajasi 2. Markaziy Osiyoda areali bo`lingan, kamayib borayotgan endem o`simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo`yi 10-20 sm oralig`idagi ko`p yillik o`t. bargi uchburchak-tuxumsimon, chetlari tekis, qalin, qisqa tukli, qisqa bandli, yuqoridagilari bandsiz. Poyasi ko`p, pastki qismi yog`ochlanuvchan, tik yoki biroz qiyshaygan. Guli poyaning yuqori qismidagi barglarning qo`ltig`ida bittadan qisqa bandlarda o`rnashgan. Toj bargi sariq. Iyul-avgustda gullab, avgust-sentyabrda mevasi yetiladi.

Tarqalishi. Toshkent viloyati: Chotqol tizmasida (Qizilnura tog`i, Maydontol va Qorabuloq daryolari vohalari hamda Orashon dovoni) va Qurama tizmalarida (Lashkarak, Gushsoy) tarqalgan.

O`sinh sharoiti. Tog`ning yuqori qismida, tosh-shag`alli tuproqlarda o`sadi.

Soni. Tabiiy zahiralari kam bo`lib, bir-biridan ajralgan to`plar hosil qilgan holda o`sadi.

Ko`payishi. Urug`idan ko`payadi.

O`simlik soni va arealining o`zgarish sabablari. Mahalliy aholi gullab turgan paytida dorivor o`simlik sifatida ko`plab yig`ib oladi. Yoz fazlida esa bu yerlarda chorva mollari boqiladi.

Muhofaza choralari. O`simlik tarqalgan maydonlarning bir qismi Chotqol biosfera qo`riqxonasi hududiga qarashli bo`lib, muhofaza ostiga olingan.

Tyanshan marmaragi (*Salvia tianschanica* Makhim.)

Kamyoblik darajasi 2. G`arbiy Tyanshandagi kamyob, endem o`simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo`yi 25-40 sm ga yetadigan ko`p yillik o`t. Poyalari 1-3 ta, tik o`suvchi, to`pgiliga yaqin qismida qarama-qarshi shoxlangan, qalin bezchasimon va uzun yumshoq oddiy tuklar bilan qoplangan. Barglari cho`ziq-nashtarsimon, uzunligi 7-9 sm, eni 3-4 sm, o`tkir uchli, chetlari patsimon bo`lingan. Yopirma barglari uzun bandli, yaprog`ining uzunligi bandiga teng, poyadagilari kichikroq, bandsiz. To`pgullari 4-6 ta (xar biri 2-3 gulli) soxta xalqadan tashkil topgan. Gulbandining uzunligi 12-14 mm. Gullari pushti rangli, uzunligi 35-40 mm. Yong`oqchasi uch qirrali, teskari-tuxumsimon, uzunligi 6 mm, silliq. May-iyun oylarida gullab, iyulda mevasi yetiladi.

Tarqalishi. Toshkent viloyati: Ugom tizmasida (Xumson), Chotqol tizmasida (janubi-g`arbiy qismi), Qurama tizmasining shimoliy yonbag`irlarida, Olmaliq shaxri atroflarida tarqalgan.

O`sinh sharoiti. Tog`larning pastki qismidagi quruq mayda jins shag`alli tuproqlarda o`sadi.

Soni. Yakka-yakka yoki ajralgan kichik to`plar tashkil qilgan holda o`sadi. Alohida qavmlar hosil qilmaydi. Chotqol biosfera qo`riqxonasi xududida ko`proq uchraydi.

Ko`payishi. Urug`idan ko`payadi.

O`simlik soni va arealining o`zgarish sabablari. Texnogen omillar ta`siri va chorva mollarini ko`p boqilishi.

Muhofaza choralari. Uning biologik xususiyatlarini va kamayishi sabablarini o`rganish lozim.

Sarxush bozulbang (*Lagochilus inebrians* Bunge).

Kamyoblik darajasi 2. G`arbiy Pomir-Oloy va janubiy Qizilqumning qoldiq tog`laridagi kamayib borayotgan endem o`simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo`yi 30-60 sm oralig`idagi poyalari oddiy yoki sershox yarimbuta. Barglari keng tuxumsimon 3-5 bo`lakli. Tojbargi oqish. Gullari pyalarining yuqori qismida 4-6 tadan bo`lib o`rnashgan. Kosachasi cho`ziq qo`ng`iroqsimon. Yong`oqchasi tuksiz, sarg`ish kulrang. Iyun-avgustda gullab, iyul-sentyabr oylarida mevasi yetiladi.

Tarqalishi. Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari: Nurota va Oqtog` tizmalari etaklarida, Zirabuloq, Ziyovuddin tog`larida, Zarafshon hamda Turkiston tizmalarida, shuningdek Qizilqumdagi Quljuqtog`da tarqalgan.

O`sinh sharoiti. Dengiz sathidan 1200 m gacha balandlikdagi soz hamda shag`alli soz tuproqlarda shuvoq va boshqa turlardan hosil bo`lgan o`simlik qavmlarida uchraydi.

Soni. Tabiatda onda-sonda va kichik to`plar hosil qilib tarqalgan. Eng zich to`plari Nurota va Oqtog`larda uchraydi.

Ko`payishi. Urug`idan ko`payadi. Urug`i 5-7 yil mobaynida unib chiqish qobiliyatini yo`qotmaydi.

O`simlik soni va arealining o`zgarish sabablari. Namgarchilikning yetishmasligi, chorva mollari tomonidan payxon qilinishi va ko`p yillar mobaynida katta miqdorlarda yig`ib olinishi soni va arealiga katta zarar yetkazgan.

Madaniylashtirilishi. 1957-1960 yillar mobaynida Samarqand viloyatida 2 ga yerda ekib o`stirilgan. 1960 yildan beri O`zbekiston Respublikasi FA "Botanika" ilmiy ishlab chiqarish markazining Botanika bog`ida ekilib kelinadi.

Muhofaza choralari. Nurota qo`riqxonasida muhofaza qilinadi. Uni yig`ib olishni qat`iy cheklash, tabiiy holda tiklanishiga ko`maklashish zarur.

Buxoro otostegiyasi (*Otoctegia bucharica* B. Fedtsch.)

Kamyoblik darajasi 1. Janubi-g`arbiy Pomir-Oloyning juda kam saqlanib qolgan, yo`qolish arafasida turgan kamyob, endem o`simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo`yi 20 sm ga yetadigan kulrang poyasi yuqori qismigacha yog`ochlanadigan yarim buta. Bir yillik novdalari noaniq to`rt qirrali, sarg`ish-oq rangli, tukli. Barglari keng-tuxumsimon, bandsiz, to`mtoq, ko`kimtir-yashil rangli, xurpaygan qalin tukli. Gullari bandsiz, barg qo`ltig`ida 5-8 tadan xalqa hosil qilib joylashgan. Guloldi bargchalari kuraksimon. Tojbarglari 10-14 mm uzunlikda, oq rangli. Iyun-avgust oylarida gullab, sentyabr-oktyabrda mevasi yetiladi.

Tarqalishi. Surxandaryo viloyati: Sho`rob, Darband va Go`rxoji qishloqlari atroflarida bir-biridan ajralgan ikkita populyatsiyasi ma`lum.

O`sinh sharoiti. Tog` oldi va tog` etaklarida gipsli tepaliklarda, gipsli qoyalarda, ba`zan gipsli oxaktoshlarda o`sadi.

Soni. Sho`rob va Darband atroflaridagi populyatsiyada tuplar soni 1800 dan oshmaydi. Go`rxojidagi populyatsiyada 3000 atrofidagi tuplar o`shishi aniqlangan.

Ko`payishi. Urug`idan ko`payadi. Ammo keyingi yillardagi tadqiqotlar uning urug`idan unib chiqishini tasdiqlamadi.

O`simlik soni va arealining o`zgarish sabablari. Chorva mollarining ko`plab boqilishi hamda o`simlik urug`iga turli xashorotlarning zarar keltirishi o`simlikning kamayishiga sabab bo`lmoqda.

Madaniylashtirilishi. O`zbekiston Respublikasi FA Botanika bog`idagi o`stirish ishlari natija bermadi.

Muhofaza choralari. U o`tib turgan joylarda nazoratxona tashkil qilish lozim.

Bo`g`iz tukli eremostaxis (*Eremostachys eriolarynx* Pazij et Vved.)

Kamyoblik darajasi 1. Qizilqumda juda kamyob, endem o`simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo`yi 20-30 sm ga yetadigan ko`p yillik o`t. Ildizi sholg`omsimon. Poyasi qalin, oddiy hurpaygan tuklar bilan qoplangan. Yopirma barglari keng-tuxumsimon, qisqa bandli, yaprog`ining chetlari tishsimon o`yilgan, oddiy tukli. Poyadagi barglari yopirma barglarga o`xshash, lekin maydaroq. Gullari mayda, yarim halqa bo`lib guloldi bargchalari qo`ltig`ida o`rnashgan. Kosachaning uzunligi 20-25 mm, karnaysimon, qaytaqisi keng, oddiy va siyrak bezchasimon tuklar bilan qoplangan. Tojining uzunligi 28-31 mm, oq rangli, pastki labi sariq. Toj nayining tashqi tomoni tuksiz, ichi esa tukli xalqaga ega. May oyida gullab, iyunda mevasi yetiladi.

Tarqalishi. Buxoro viloyati: Qizilqumda tarqalgan. Qozog`istonda ham uchraydi.

O`sinh sharoiti. Tekisliklardagi sur-qo`ng`ir tusli tuproqlarda o`sadi.

Soni. Birinchi marta 1871- yil 5- mayda Karak cho`lidan va shu yil Karak tog`ining sharqiy etaklaridan terilgan (Chimkent viloyati). Oxirgi bor 1956 yili g`ijduvon tumaniga qarashli Yangiquduq yaqinidan topilgan (Buxoro viloyati). So`nggi yillarda bu turni toppish uchun uyushtirilgan ekspeditsiyalar natijasiz tugadi.

Ko`payishi. Urug`idan ko`payadi.

O`simlik soni va arealining o`zgarish sabablari. Chorva mollarining haddan tashqari ko`p boqilishi uning o`shishiga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Muhofaza choralari. U saqlanib qolgan joylarni aniqlash uchun ekspeditsiyalar uyushtirish lozim.

Ko`rimsiz qo`ziquloq (*Phlomis nubilans* Zakirov)

Kamyoblik darajasi 2. Nurota tizmasidagi kamyob, endem o`simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo`yi 30-40 sm oralig`idagi ko`p yillik o`t. Poyasi bir nechta. Bargi tuxumsimon, chetlari tekis yoki noaniq arrasimon, ustki tomoni yulduzsimon va oddiy tuklar bilan qoplangan, pastki tomoni esa qalin yulduzsimon tukli va yo`g`on tomirli. Gullari bandsiz, poyaning yuqori qismidagi barglar qo`ltig`ida 2-6 tadan siyrak xalqa hosil qilib joylashgan. Guloldi bargchalari bigizsimon, kosacha nayidan 1,5 barobar uzun. Kosachasi 10-13 mm uzunlikda, qalin yulduzsimon tuklar bilan qoplangan. Toji pushti, uzunligi 23-27 mm. Iyulda gullab, avgust oyida mevasi yetiladi.

Tarqalishi. Navoiy viloyati: Nurota tizmasi va Oqtog`da tarqalgan.

O`sinh sharoiti. Tog`ning o`rta qismida mayday jins tuproqli yonbag`irlarda o`sadi.

Soni. Tabiatda kam saqlanib qolgan. Uning to'plari bir-biridan ajralgan holda tarqalgan. Go'rdaryoda, Uxumsoyda va Sintob qishlog'i atroflarida ancha keng tarqalgan. Umumiy soni aniqlanmagan.

Ko'payishi. Urug'idan ko'payadi.

O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Qishloq xo'jalik ekinlari uchun yerlarning o'zlashtirilishi va chorva mollarining boqilishi tufayli kamaygan.

Muhofaza choralari. Maxsus muhofaza tadbirlari ishlab chiqilmagan. To'plarning bir qismi Nurota qo'riqxonasi tomonidan muhofaza qilinadi.

Kudryashev arslonqulog'i (Leonurus kudrjaschevii Kam. et Tulyag.)

Kamyoblik darajasi 1. Hisor tizmasidagi endem tur.

Qisqacha tavsifi. Bo'yi 35-55 sm ga yetadigan, to'g'ri o'suvchi, oddiy ba'zida biroz shoxlangan ko'p yillik o't. Poyasi qalin, kulrang tuklar bilan qoplangan. Bargining ikki tomoni tukli, uzunligi 3-6 sm, eni 2,5-4 sm. Gul bandidagi bargi keng rombsimon, asosi ponasimon. Gullari xalqasimon o'rnashgan, uzunligi 3,5-9 sm. Gulyonbargchasi qalami-nashtarsimon ba'zida uchi qayrilgan, qalin tuklar bilan qoplangan, gul kosacha bargidan biroz qisqa. Gulkosacha bargining uzunligi 6-6,5 mm, qalin tukli. Gultoj bargi mayday, uzunligi 10-12 mm, rangli. Yong'oqchasi oqish-jigarrang, uch qirrali, uchiga tomon qiyshiq, o'tkirlashgan, uzunligi 2 mm gacha, iyunda gullab, iyulda mevasi yetiladi.

Tarqalishi. Qashqadaryo viloyati: g'arbiy Hisorning (Beshnay tog'i) shimoliy yonbag'rida tarqalgan.

O'sish sharoiti. Tog'ning yuqori qidmidagi shimoliy toshloq yonbag'irlarda o'sadi.

Soni. Beshnay tog'ida 2 ta tupi borligi aniqlangan.

Ko'payishi. Urug'idan ko'payadi.

O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Chorva mollarining ko'p boqilishi tufayli kamayib ketgan.

Muhofaza choralari. Maxsus muhofaza tadbirlari ishlab chiqilmagan.

O'zbekiston Respublikasining "Qizil Kitobi" ning 2010 yildagi 4-nashriga 324 ta tur o'simlik kiritilgan. Ulardan 9 ta turkumga 30 ta tur yalpizdoshlar oilasi tarkibiga kiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YAHTI:

1. Parov. O'. P., Shermatov. G'. O'simliklarni muxofaza qilish umumxalq ishi – Toshkent, 1991.
2. Prator O', Yuldashev A., Bahromov A. O'zbekiston tabiati. O'simliklar. — Toshkent, 2011.
3. Sultonov. G. Tabiiy boyliklarni muxofaza qilish umumxalq ishi – Toshkent, 1972.
4. Sahobiddinov. S. S. O'simliklar sistematikasi II-tom – Toshkent, 1966.
5. Usmonxodjayev A., Basitxonova E., Prator O', Djabbariv A. O'zbekistonda o'sadigan shifobaxsh o'simliklarning etimologik zamonaviy ensiklopediyasi. — Toshkent, 2018.

6. Vvedenskiy.A.I. O`zbekiston florasini V-tom –Toshkent, 1961.
7. Haydarov Q.H. Hojimatov Q.H O`zbekiston o`simliklari - Toshkent, 1976.
8. To`xtayev.A. Ekologiya va tabiatni muxofaza qilish –Toshkent, 2001
9. O`zbekiston Respublikasining Qizil kitobi –Toshkent, 1984.
10. O`zbekiston Respublikasining Qizil kitobi –Toshkent, 1998.
11. O`zbekiston Respublikasining Qizil kitobi –Toshkent, 2006.
12. O`zbekiston Respublikasining Qizil kitobi –Toshkent, 2010.